



XALQ HUNARMANDCHILIKDA ZAMONAVIY O‘ZBEK MILLIY LIBOSLARINING O‘RNI

Bahronova Sh.I.

Buxoro davlat pedagogika institute “Texnologik ta’lim” kafedrası o‘qituvchisi

Nuriddinova N. O.

Buxoro davlat pedagogika institute “Texnologik ta’lim” yo‘nalaishi talabasi

Tayanch so‘zlar: adras, ipak, do‘ppi, kelagay, shoyi, chopon, zardo‘zlik, mato, milliy kiyim, tasvir, tarix, madaniyat, moda, an‘anaviy, madaniy, xalqning etnik tarixi, dekorativ, dizayn, bezak, ramz.

Ключевые слова: адрас, шелк, шляпа, будущее, шелк, плащ, украшения, ткань, национальная одежда, образ, история, культура, мода, традиционная, культурная, этническая история народа, декоративность, дизайн, орнамент, символ.

Key words: adras, silk, hat, future, silk, cloak, jewelry, fabric, national dress, image, history, culture, fashion, traditional, cultural, ethnic history of the people, decorative, design, ornament, symbol.

Zamonaviy jamiyatda oliy ta’lim muhim rol o‘ynaydi. Istalgan davlatni tezlikda rivojlanishi, asosiy va inkor etib bo‘lmaydigan intellektual imkoniyatlar ta’lim tizimini isloh qilish orqali amalga oshiriladi.

Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi, turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi, turli ixtisosliklar (kulollik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o‘ymakorlik, kashtado‘zlik, ko‘nchilik, tikuvchilik, to‘quvchilik, zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo‘zlik, bo‘yoqchilik, kemasozlik, taqachilik, tunukaszlik va boshqalar)ga ajraldi. Hunarmandchilik qanday tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab, mas, paxta va pilla bor yerda to‘qimachilik, sifatli xomashyo bor yerda kulolchilik, jun va teri ko‘p yerda to‘qimachilik va ko‘nchilik, shunga qarab kosibchilik, o‘rmonlar ko‘p yerda yog‘ochsozlik, ma‘danlarga boy yerlarda metall ishlab chiqarish va temirchilik, dengiz va daryo bo‘ylarida kemasozlik va boshqa rivoj topgan. Jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, mehnat taqsimoti bilan aloqador holda hunarmandchilikning 3 turi shakllangan: 1) uy hunarmandchiligi;



yopinganlar. Paranjı soxta yengli, to‘nsimon, uzun yopinchiqdan iborat bo‘lib, otnıg dum qilidan to‘qilgan to‘n parda - chachvon betga tutilib, ustıga paranjı yopilgan.

Chachvon yuzni berkitib, belgacha yetgan. Odatda, paranjı uydan ko‘chaga chiqqanda yopinilgan. Qishloq joylarda paranjı kam ishlatilgan, uni bayramlarda va uzoq safarga chiqilgandagina yopinganlar.

Xalq turmushining boshqa sohalari singari milliy liboslarni o‘rganish har bir xalqning etnik tarixi va madaniyatini, uning boshqa xalqlar bilan o‘zaro aloqalarini tatbiq etish bilan chambarchas bog‘liqdir. U moddiy va ma‘naviy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o‘ziga xosligini aks ettiruvchi va etnik belgilarini ko‘rsatuvchi mezon ham hisoblanadi. Shu ma‘noda libos tarixini o‘rganish yer kurrasida mana necha ming yillardan beri yashab kelayotgan xalqlar boy madaniy merosi, shu bilan birga ularning an‘analari, yashash tarzi haqida kattagina ma‘lumot ham beradi. Liboslar nafaqat insonlarning tabiiy va estetik ehtiyojlarini qondiradi, shu bilan birga ularda har bir millatning urf-odatları, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba‘zi bir elementlari, diniy e‘tiqod, nafasat va estetik normalar o‘z aksini topgan. Bundan tashqari, kiyimlarda inson yashagan joy va zamon, uning hayotiyigi, quvonchli yoxud qayg‘uli voqealar namoyon bo‘ladi.

Kiyim jamiyat moddiy va ma‘naviy madaniyatining tarkibiy qismidir. Bir tomondan, u inson mehnati mahsuli sifatida ma‘lum bir moddiy qiymatga ega bo‘lib, ma‘lum bir ehtiyojlarni qondirsa, ikkinchi tomondan u amaliy-bezak san‘ati namunasi hamdir. Me‘moriy inshootlar, mehnat va turmush qurollari singari kiyim ham ma‘lum bir tarixiy davr, mamlakatning tabiiy iqlim sharoiti, xalqning milliy o‘ziga xosliklari va uning go‘zallik haqidagi tasavvuri haqida ma‘lumot beradi.

Ko‘p asrlar davomida yaratilgan kiyim shakllari va uning alohida elementlari, dekorativ dizayni, bo‘yoqlari xalq liboslarining mintaqaning tabiiy-iqlim sharoitlariga moslashganidan dalolat beradi. Kiyimning xususiyatlari uni kiygan odamlarning yoshi, ijtimoiy mavqei, dunyoqarashi, qayg‘uli yoki quvonchli voqealar, iqtisodiy tsikllar bilan belgilanadi. Ana bir yorqin voqea bo‘ldi. 20-asr boshlarida o‘zbek ayollarining ayollar libosida shoyi yoki tilla ip bilan tikilgan duppi do‘ppilari paydo bo‘lgan. Ilgari do‘ppilar faqat erkaklar kostyumining atributi edi. Bugungi kunda ham yosh o‘zbek ayolining libosi ko‘pincha oqlangan do‘ppi bilan to‘ldiriladi. “Duppy” talisman, bezak, hurmat ramzi va odamning tashrif qog‘ozi bo‘lib xizmat qilgan, bu orqali uning qayerdan kelganligini aniqlash mumkin edi. Buxoro ayollari liboslari hashamatli shoyi matolar va tilla taqinchoqlardan iborat edi. Buxoro shahri zardo‘zlik va ikat ishlab chiqarishning yuragi bo‘lgan. O‘zbekiston moda dizaynerlari chinakam sharqona poetikadan ilhomlangan ajoyib obrazlar yaratadilar. Ularni amalga oshirishda ikat, qo‘lda tikilgan kashta, bo‘yalgan “kelagay” ro‘mollari, an‘anaviy matolardan salla shaklidagi naqshlar,



do'ppilar va, albatta, qadimiy zargarlik buyumlari qo'llaniladi. Kostyum ansambli bo'lib, tizzagacha bo'lgan lakonik ko'ylak, kashta tikilgan o'zbek shoyidan tikilgan plash, yam-yashil salla va "turk" tuflisi yorqin teginishdir. O'zbekistondagi mashhur batika san'ati ustalari kiyim yaratishda matoga rasm chizish texnikasidan foydalanganlar. To'plam O'rta Osiyodagi yarim ko'chmanchi etnik guruhlarning sarsonsargardon darveshlarning hikmatli masallari va shomaniy timsollaridan ilhomlangan. Qatlamli kostyumlar tunikaga o'xshash ko'ylak va hilpiragan xalatdan, bo'yalgan shaffof ipakdan tikilgan. XVI asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davr so'nggi o'rta asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda O'rta Osiyoda shakllangan o'zbek xonliklarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida shaharlarning tutgan o'rni beqiyos edi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, shahar tarkib topishining asosiy omillaridan biri ijtimoiy-iqtisodiy negizga borib taqalib, bu mahalliy aholining asosiy mashg'uloti bo'lgan dehqonchilikdan hunarmandchilikning mustaqil soha sifatida ajralib chiqishi bilan belgilanadi. Bu bo'linish oqibatida aholi shug'ullanadigan mashg'ulot turlariga qarab O'rta Osiyo hududidagi davlatlarning turli joylarida istiqomat qilganlar. Feodallarning ma'lum mulklari asosida siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy markazlar shakllanib borgan. Odatda, bu markazlarda joylashgan mahalliy hukmdor va yer egalari qo'rg'onlari atrofi savdo-hunarmandchilik bilan mashg'ul aholi tomonidan band etib borilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotining rivojlanishi natijasida ular egallagan hududda chegaralari yanada kengaygan. Oqibatda, bunday markazlar asosida shaharlar shakllanib, asrlar mobaynida ular taraqqiyotida pillapoyalari va inqirozli bosqichlarni boshlaridan kechirganlar.

Xulosa. Hunarmandchiligimiz bizning eng katta boyligimiz, faxrimiz. Uni asrab avaylash, sayqallash, kelajak avlodga nuqsonlarsiz yetkazish esa bizning burchimiz. Buning uchun yangi texnika va texnologiyalarni ishga solgan holda innovatsion g'oyalar asnosida bor kuch g'ayratimiz bilan harakat qilamiz. Azaldan bejiz ayilmaganki, "Hunardan kelsa boyluk, turmush bo'lar chiroylik". Yangi O'zbekistonni mehnatsevar xalqimiz, hunarmand ustalarimiz bilan barpo qilamiz. Men ham bu yo'lda o'z hissasini qo'shayotgan yoshlardan biriman va bu yo'lda jon jahtim bilan xizmat qilaman.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.
2. Sh. Mirziyoyev, "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"
3. R.V.Almееv "Buxoro davlat arxitektura-san'at muzeyqo'riqxonasi tarixidan". Buxoro. 1990 yil. 2. N. Sodiqova. 5. "O'zbeklarning milliy liboslari (XIX-XX asrlar)
4. Жўраев А. Р., Сайфуллаева Д. А., Бахронова Ш. Замонавий таълим технологиялар асосида ташкил қилинадиган шахсга йўналтирилган таълим жараёни //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 8. – С. 169-176.



5. Sayfullayeva D. A., Kh K. S. Bahronova Sh. I //Increasing the professional creativity of students in teaching specialties. Проблемы современной науки и образования Научно-методический журнал. – 2020. – Т. 12. – №. 157. – С. 33.
6. Sayfullayeva D. A. Sh. I. Bahronova., « //Образование наука и инновационные идеи в мире» Xalqaro ilmiy jurnal. – 2022. – Т. 1. – №. 8.
7. Dilmurodovna R. D. et al. Xalq hunarmandchiligi namunalari takomillashtirish va rivojlantirish (Zardo ‘zlik san’ati misolida) //Ijodkor o‘qituvchi. – 2023. – Т. 3. – №. 27. – С. 9-12.
8. Yunusovna Y. G. et al. Insonlar hayotida o ‘zbek milliy etno-liboslarining o ‘rni va tarixi // Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 33. – №. 3. – С. 122-125.
9. Islamovna B. S., Ubaidilloevna D. N., Norjona P. Modern competences of organizing technology courses //Samarali ta’lim va barqaror innovatsiyalar. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 146-151.
10. Baxronova S., Davlatova N. Texnologiya fanidan mashg ‘ulotlarni tashkil qilishning zamonaviy kompetensiyalari //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 7. – С. 64-68.
11. Baxronova S., Davlatova N. Bo‘lajak texnologiya fani o ‘qituvchilarini tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 144-148.
12. Bakhtiyorova S. I., Sharopova M. F. “Improving the teaching process of materials science on the basis of foreign experience //E-Conference Globe. – 2021. – С. 46-48.
13. Baxtiyoro S. I., Jo‘rayeva D. B. 5 Sinf texnologiya darslarida “materiallarga ishlov berish bo ‘limi” ni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o ‘qitish metodikasini takomillashtirish //golden brain. – 2023. – Т. 1. – №. 33. – С. 73-79.
14. Бахтиёрва С. И. Использование программного обеспечения в преподавании материаловедения //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-2 (77). – С. 80-83
15. Kazakov F. et al. Methods to improve hackles in the production of quality yarn //Journal of Physics: Conference Series. – IOP Publishing, 2021. – Т. 2094. – №. 4. – С. 042091
16. Ruzieva D. Classification of software educational tools for use in the educational system // International Conference On Higher Education Teaching. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 41-45.

РЕЗЮМЕ

Maqolada zamonaviy miliy XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o‘zbek milliy libosining tarixi va rivojlanishi, o‘zbek xalqining tarixdagi kiyim-kechaklari bilan bog‘liq ma’lumotlarni arxeologik qazilmalar jarayonida topilgan qadimiy katta devoriy suratlar, turli buyumlarga tushirilgan tasvirlar, o‘rta asrlardagi kitob miniatyuralari beradi. O‘rta asrlarga oid miniatyuralar o‘zbek kiyimlarining o‘ziga xos uslubi, ya’ni tipi shakllanganligi va ular keyingi davrgacha saqlanganligini ko‘rsatuvchi noyob namunalari haqidagi ma’lumotlar yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье представлены сведения об истории и развитии современного узбекского национального костюма конца XIX - начала XX веков, исторической одежды узбекского народа, старинных настенных росписей, найденных при археологических раскопках, изображений, напечатанных на различных предметах, книжных миниатюрах средневека. Освещены сведения об уникальном стиле узбекской одежды, то есть формировании типа миниатюр со средневековья и о том, что они сохранились до следующего периода.

SUMMARY

The article provides information about the history and development of modern Uzbek national dress of the late 19th and early 20th centuries, the historical clothing of the Uzbek people, ancient wall paintings found during archaeological excavations, images printed on various objects, book miniatures of the Middle Ages. The information about the unique style of Uzbek clothing, that is, the formation of the type of miniatures from the Middle Ages and the fact that they were preserved until the next period, is highlighted.